

XII ASRDA MUSULMON UYG'ONISH DAVRI.

Ne'matov Azizbek Tohir o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Email: nematovazizbek834@gmail.com.

Telefon raqami: +99890377420

Qudratov Botir Ismoil o'g'li

Denov Tadbirkorlik va pedagogika institutining talabasi

Email: qudratovb51@gmail.com

Telefon raqami: +998971970797

***Annotatsiya:** Sharq allomalarining dunyo ilmiy tafakkuri taraqqiyotiga qo'shgan hissasi adabiyotlar tahlili asosida yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Islom dini, Hadis ilmi, Qur'oni Karim, Yunesko, Dorul Hikma, Ma'mun Akademiyasi, Islom renessansi, qomusiy olimlar,*

Islomning asosiy muqaddas manbai — Qur'on oyatlari va sur'alaridir, ularda asosiy diniy qonun-qoidalar, aqidalar bayon etilgan. Undan so'ng asosiy manbai Hadis — Muhammad payg'ambarning aytgan so'zlari, uning hayotiy faoliyati, ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlar to'plamidir. Bu ikki asosiy manba muqaddas hisoblanib kalom va shariat shular asosida vujudga kelgan. Qur'on, hadis va boshqa diniy manbalarni talqin etish tafsir keng avj oldi. Bularning hammasi O'rta Osiyoda keng tarqaldi. Ularni shu bilan birga islom dinshunosligining muhim tarmog'i sifatida shakllantirish va rivojlantirishda Movarounnahr va Xurosonning dinshunos olimlari, mutafakkirlari ham katta hissa qo'shdilar, bu bilan ular butun musulmon olamida nom tarqatdilar¹. Umuman qadimgi madaniyatga ega bo'lgan O'rta

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom

Osiyoda islom dini va dinshunosligiga ma'naviy madaniyatning ifodasi axloqshunoslikning yunalishi sifatida munosabatda bo'lingan. Xususan IX asrda musulmon o'lkalarida xadisshunoslik, xadis to'plash, uni o'rganib tartibga solish, dinshunoslikning eng muhim sohalaridan hisoblangan. To'plangan hadislarning hajmi, chinligi, tartibi, ahamiyati bilan musulmon olamida olti muhaddis (hadis to'plovchi) mashhur bo'ldi. Muhaddislar ichida eng obro'lisi va mashho'ri Imom Buxoriydir (809—870). U Buxoroda tug'ilib, shu yerda o'z davri ilmlarini, ayniqsa diniy bilimlarni har tomonlama o'rgangan². So'ng o'z bilimlarini mukammallashtirish maqsadida Makka, Madina, Bag'dod, Damashq, Hijoz, Kufa, Nishopur kabi juda ko'p shaharlarga borgan Uning islom dinshunosligiga oid 20ga yaqin katta hajmdagi asarlar yozgani ma'lum³. «Al-Jome' as-Sahih.», «At-tarix al-Kabir», «At-tarix as-sagir», «Al-Adab al-mufrad» kabi asarlar shular jumlasidandir. Buxoriyni butun musulmon olamiga mashhur qilgan asari to'rt jildli «Al-Jome' as-Sahih.» («Ishonchli to'plam») bo'lib, u «Sahih al-Buxoriy» nomi bilan ham ma'lumdir. Bu asar 160 qismdan iborat bo'lib, 3450 bobni o'z ichiga oladi.«Sahih» butun musulmon olamida keng tarqalgan, unga takliflar, sharxlar, tadqiqotlar yozilgan. Buxoriyning yaqin shogirdlaridan bo'lmish mashhur muhaddislardan biri Imom at-Termiziydir (824-892). U Termizga yaqin bir qishlog'ida tug'ilib, Sharqning juda ko'p shaharlarida bo'lib, o'z davrining diniy ilmlarini egallagan va o'z vatanida vafot etgan. At-Termiziy o'ndan ortiq diniy asarlar muallifidir. Termiziyning musulmon olamiga mashhur qilgan asari «Jome at-Termiziy» yoki «Sunan at-Termiziy»dir. O'rta

ettirib, yangi bosqichgako'taramiz. T.1. -Toshkent.: O'zbekiston. 2017.

² Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. -T.;O'zbekiston.. 2017.

³ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatinibirgalikda barpoetamiz. -Toshkent.: O'zbekiston. 2017.

Osiyolik olimlar hadisshunoslik bilan birga islom xuquqshunosligi — fiqh hamda Qur'onga tafsir yozish sohasida ham shuxrat qozonganlar⁴. Masalan, O'rta Osiyodan chiqqan mashhur huquqshunoslardan Burxoniddin Marg'inoniy, Abu Lays Samarqandiylarni ko'rsatib o'tish zarur. Islomning asosiy manbai «Qur'on»ga tafsir (sharh izoh;) yozish sohasida ham bu davrdagi O'rta Osiyolik olimlardan Xorazmda yashab ijod etgan Zamaxshariy, Faxriddin Roziy kabilar o'z asarlari bilan Islom dinshunoslari orasida nom qozonganlar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu davrda dinshunoslik, islom ilohiyotini o'rganish, kalom, fiqh, ilm-fan, ilmiy madaniyatning muhim sohalaridan hisoblangan va ilmlar tasnifi tizimida muhim o'rin egallagan⁵. Shu sababdan bo'lsa kerak bu davrda qomusiy olim mutafakkirlar turli aniq bilimlar qatorida diniy bilimlar bilan ham mashg'ul bo'lganlar. Diniy bilimlarni O'rta asr ma'naviyati, madaniyati o'zining o'zviy va tarkibiy qismi sifatida talqin etgan. Shuningdek, manbalarda islomni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan bilimlar shariat ilmlari deb nom olgan. Ko'hna Xorazmning boy o'tmish tarixi ming yillarga borib taqaladi⁶. Kishilik sivilizatsiyasining ko'hna beshiklaridan bo'lgan Xorazmda azal-azaldan ilm-ma'rifat ham yuqori darajada taraqqiy etganligi ma'lum⁷. Shu tabarruk zamin Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri aytganda «dunyoga Muso al-Xorazmiy va Abu Rayxon Beruniy, Maxmud Zamaxshariy va Najmiddin Kubro, Paxlavon Maxmud va Ogahiy singari buyuk zotlarni bergan» Bundan ming yil avval shu muqaddas zaminda «Dorul Hikma va ma'rif» yoki «Majlisi uloma» nomi bilan mashhur bo'lgan

⁴ Karimov I.A. Tarixiy xotiasiz kelajak yo'q. 7 j. - T., O'zbekiston, 1999.

⁵ Karimov I.A. Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak. T., 1994.

⁶ Karimov I.A. Fanning vazifasi — Vatanning gullab yashnashiga xizmat qilish. T., 1994.

⁷ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T, "Ma'naviyat", 2008.

Sharqning qadimiy ilmiy markazini vujudga kelganligi Markaziy Osiyo xalqlari xayotida katta voqea bo'ldi. «Darul Hikma va ma'rif» ning ilmiy faoliyati o'tgan asrda Yevropa va rus sharqshunos olimlaridan Eduard Zaxau, S.P.Tolstov, I.Y.Krachkovskiy, P.G.Bulgakov, o'zbek olimlaridan akademik Yahyo G'ulomov, Ibrohim Mo'minov, Mo'zaffar Xayrullaev va Ashraf Ahmedovlar tomonidan chuqur o'rganildi. Ular shu ilmiy markazni xuddi Bog'dodda IX asrdagi «Bayt ul -Hikma» («Hikmatlar uyi») kabi Sharqning o'z davrida yirik ilm-ma'rifat dargohi - Fanlar akademiyasi bo'lganligini asoslab berdilar. XI asrda Xorazmshohlar poytaxti Gurganjda vujudga kelgan bu ilmiy markaz endilikda Xorazm Ma'mun akademiyasi nomi bilan mashhur⁸. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning say-harakati bilan YUNESKO tashkilotining Bosh konferensiya 2003 yil sentabr-oktabr oylarida bo'lib o'tgan o'zining 32 sessiyasida Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligini dunyo miqyosida nishonlash haqida qaror qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'zining 2004 yil 9 noyabrda ana shu tarixiy sanani 2005 yil oktabrda keng nishonlash haqidagi tarixiy qarorini e'lon qildn. Bu tarixiy qaror o'zbek xalqining asriy orzularini ruyobga chiqardi, ularning quvonchiga quvonch bag'shladi.«Darul Hikma» yoki «Majlisi uloma» nomi bilan atalgan bu ilm maskani bir gurux, olim, adib, shoirlarning tasodifiy yig'ini emas edi. Boshqacha aytganda u tasodifan vujudga kelmadi, aksincha o'zining mustahkam ma'naviy zaminiga ega edi. Ma'mun Akademiyasi avvalo ko'hna Xorazmning o'zoq o'tmishdagi ilm-ma'rifat ildizlari bilan bevosita aloqador, shuningdek u ilk o'rta asr Uyg'onish davri madaniy yuksalishining qonuniy natijasi bo'ldi. Zero ko'hna Xorazmda ayniqsa, falakiyot (astronomiya), riyoziyot (matematika) va boshqa ilmlarga bo'lgan qiziqish ancha erta vujudga kelgan. Ma'lumki IX-XII asr boshlari Sharq xalqlari tarixida Sharq Uyg'onish davri yoki «Islom Renessansi» nomi bilan mashho'rdir. Bu davr ilgari xalifalik tarkibiga kirgan Yaqin Sharq, O'rta

⁸ Gorfunkel A.X. Gumanizm i naturfilosofiya epoxi Vozrojdeniy. M. 1997.

Osiyo, Xorazm, Xuroson, Eron, shimoliy Hindiston va ularga qo'shni bo'lgan mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ilm-ma'rifiy sohalarda yuksak taraqqiyotga erishilganligi bilan ajraladi. IX asrga kelib poytaxt Bag'dodda tabiiy va gumanitar fanlar bilan shug'ullangan Sharqning bir gurux mashhur olimlari, mutafakkirlari va tarjimonlari faoliyat ko'rsatib, ular o'zlarining bebaho asarlari bilan dunyo fani taraqqiyotiga o'lgan hissa qo'shdilar. IX asrda Bag'dodda faoliyat ko'rsatgan «Bayt ul-Hikma.» Sharqning to'ng'ich akademiyalaridan sanalib, mazkur ilmiy dargohda ijod qilgan olimlarning aksar ko'pi, jumladan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Ahmad al-Marvaziy, Abbas al-Javhariy va boshqalar Mavarounnahr va Xorazm zaminidan yetishib chiqqan taniqli allomalar va mutafakkirlar edi. Ular tomonidan yaratilgan bebaho asarlar va ilmiy kashfiyotlar keyinchalik Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlar jamoasining nazariy va amaliy ilmlar sohasida erishgan yutuqlari uchun ma'naviy asos bo'lgan edi. Beruniy, Abu Nasr ibn Iroq, Ibn Sinolar o'z tadqiqotlarida Bag'doddagi «Bayt ul-hikma» olimlari, Hindiston va antik Yunon olimlari va mutafakkirlari asarlaridan keng foydalanliklarini mamnuniyat bilan qayd etadilar. Xususan Aristotel, Ptolomey, Yevklid, Gippokrat, Galen, Pifagor kabi qadimgi Yunon mutafakkirlarining nomlari hurmat bilan tilga olinadi. Darhaqiqat, eldoshimiz Muhammad al-Xorazmiy (783-850) «Bayt ul-Hikma» ning yetakchi olimi, ilmiy rahbari, fanda -yangi yunalish va maktab yaratgan allomalaridan edi. U astronomiya, matematika, geografiya, tarix va boshqa fanlar sohasida o'nlab asarlar meros qoldirgan. Uning «Al - jabr val-muqobola» kitobi jahonda birinchi bo'lib algebra faniga asos bo'lgan asarlardandir. Olim matematika fanida o'nlik pozitsion hisoblash sistemasini yaratdi. Shu asosda u qo'shish, ayirish, ko'paytirish, va bo'lish amaliyotining qulay va oson yo'llarini kashf etib, Sharq va Yevropani hisoblash tizimiga o'rgatdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, O'rta asr madaniyati shu darajada yuksaklikka ko'tarilganki, dunyoviy ilmlar, turli aniq fanlarning

yutuqlari, natijalari uning mazmunini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan, turli sohalarda ijod etilib, katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. O'rta Osiyoda dinshunoslikning o'ta rivoj topgan asri IX asr bo'lsa, XII asr ilm-fan taraqqiyotining cho'qqisi bo'ldi. O'sha davrdagi ilmning hajmi, miqyosi, kengligi ayrim mualliflar asarida uchrovchi ilmlar tasnifida yaqqol namoyon bo'ldi. O'z davrining qator qomusiy ahllari — Forobiy, Ibn Sino kabilar bu masalaga katta e'tibor berdilar, ayrim mualliflar esa unga maxsus asarlar bag'ishladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.1. -Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. -T.;O'zbekiston.. 2017.
- 3.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini
birgalikda barpoetamiz. -Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
- 4.Karimov I.A. Fanning vazifasi —Vatanning gullab yashnashiga xizmat
- 5.Karimov I.A. Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak. T., 1994.
- 6.Karimov I.A. Tarixiy xotiasiz kelajak yo'q. 7 j. - T., O'zbekiston, 1999.
- 7.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T, "Ma'naviyat", 2008.
- 8.Gorfunkel A.X. Gumanizm i naturfilosofiya epoxi Vozrojdeniy. M. 1997.